



Psixologiya fanida ustanovkaning muhim o'rni

Muhammadiyeva Jasmina Olimjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Rus tili ta'lim yo'nalishi talabasi

jasminamuhammadiyeva4@gmail.com

Tojiddin Yo'ldoshev Abdukarimovich

Pedagogika va psixologiya fani katta o'qituvchisi

tojiddinyuldoshev@gmail.com

Annotatsiya: Kelajakdagi voqealarni va muayyan yo'nalishdagi harakatlarni idrok etish, bajarishga shaxsning tayyorligini anglatishi. Atrof muhit bilan o'zaro ta'siri ostida ehtiyoj va qoniqish holati mavjud bo'lganda paydo bo'lishi. Ya'ni, psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani shuningdek ustanovkada ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish muammosi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, ijtimoiy, ustanovka, eksperimental, obektiv, subektiv, motiv, fiksial ustanovkalar.

Аннотация: Восприятие будущих событий и действий в определенном направлении означает готовность человека к действию. Появляется при возникновении состояния потребности и удовлетворения под влиянием окружающей среды. То есть в науке психологии среди бессознательных склонностей, направленных на поведение и деятельность, в определенной степени исследуется она, а также обсуждается проблема дачи инструкций и руководства учреждением.



Ключевые слова: психология, социальная, установка, экспериментальная, объективная, субъективная, мотив, фиксация установка.

Bugungi psixologiya fanida va ijtimoiy taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasi, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Psixologiya fani inson ongi va xulq-atvorini ilmiy jihatdan o'rganadigan fan. Psixologiya ko'plab sohalarda odamlarning fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini tushunish, inson hayotiga hissa qo'shish va odamlarga sog'lom va to'liq hayot kechirishga yordam berish uchun qo'llaniladi. Psixologiya bizga inson ongining chuqurligiga sayohat qilish imkonini beradi va bizni individual va jamiyat darajasida yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgandir. Lekin keyingi atamalar uning haqiqiy mohiyatini, ma'nosini o'zida mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun terminni hech o'zgarishsiz qoldirsa ham bo'ladi. Odatda ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyor turishlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi va uning qonuniyatlari eksperimental tarzda ta'kidlab o'tilgan ilmiy maktab namoyandalari tomonidan aniqlangan. Uznadzening tajribasida sinaluvchiga ikkita, bittasi katta, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani uzluksiz ravishda bir nechta (10-15) marta ko'zi yumuq holda paypaslab taqqoslash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soqqachalar almashtirilib, baravar jismlar har xil tuyuladi, ya'ni sinaluvchida illyuziya (noto'g'ri aks ettirish) holati yuzaga keladi. Bunday psixologik voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, ob'ektiv jihatdan o'zaro teng



soqqachalar taqqoslanganligida ular bir biriga teng emas, degan mayl bilan favqulodda sub'ektiv sharoitda ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntirilganda, taqqoslash jarayoni ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday oqibatga olib kelgandir. D.N.Uznadzening ta'kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasigina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mashsuli bo'lib hisoblanadi. D.N.Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o'ng qo'lga navbat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo'lga bir-biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo'lida ham ilyuziya, ya'ni noto'g'ri idrok qilish vujudga keladi. Ko'z bilan idrok qilishda ikkita o'zaro teng ob'ektlarni qayd qilishdagi ustanovka o'ng ko'zga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Eksperimental tarzda o'rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insoning o'ziga sezilmagan holda muayyan ob'ektlarda sub'ektga taalluqli «fiksial ustanovkalar» (qayd etilgan ustanovkalar) vujudga kelganligi aniqlangan. Demak, ustanovkani eksperimental tadqiqot etish natijasida anglanilmagan mayllar asta-sekin qayd qilinuvchi (fiksasion) darajasiga o'sib o'tish mumkin.

Ustanovka, Uznadzening fikricha, ong doirasidan tashqarida yotadi. "Ongli aqliy jarayonlarga qo'shimcha ravishda, ma'lum ma'noda" qo'shimcha ongli "ma'noda mavjud bo'lib, bu ularning juda muhim rol o'ynashiga to'sqinlik qilmaydi. Bizning holatda, bu rolni biz ilgari o'ynagan sozlama o'ynaydi. Gipnotik uyqu holatida, bizning sub'ektlarimizda o'rnatilgan. Bu "Bu munosabat, bizning tajribalarimizda, hech qachon ongning mazmuni bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da, u shubhasiz, unga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lib chiqdi : ob'ektiv ravishda teng to'plar, albatta, tajribali edi. Shunday qilib, bizning ongli tajribamiz, o'z navbatida, bizning ongimizning mazmuni bo'lmagan munosabatlarimizning ma'lum ta'siri ostida bo'lishi mumkinligini ta'kidlashimiz mumkin.



Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, Ustanovka insonning butun hayoti davomida vujudga keladi, biz ular bilan, qoida tariqasida, biz bahslashmaymiz, lekin etnik doimiyliklar haqida gapirganda, biz madaniyat va ijtimoiylashuv jarayonida paydo bo'lgan, har birining ajralmas o'ziga xos elementlari bo'lgan alohida turdagi ustanovkatlarni nazarda tutamiz. Shuningdek, ustanovka inson hukmronligi va qudratini tashkil qilishning yuksak darajasi sanaladi. U xulq-atvorning izchilligini asosiy vazifasi hisoblanadi. Ustanovka insonning muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak yo'sinda umumlashgan tayyorgarlik holati, reaksiyaning yaqqol natijasi kodlashtirilgan dinamek modeling mazkur reaksiya vaqtini oldindan payqash, qolaversa yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas qismidir. Shuning uchun ustanovka o'zgaruvchanlik va barqarorlikni aniqlashga xizmat qiladi. Ya'ni ustanovka insonlarning fikrini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi. Shuningdek, jamoalarda, ba'zida guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish va ishonish ba'zida noxush oqibatlarga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misol bo'la oladi. Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi, irqchilik munosabatlari, ilmiy unvoni va boshqa ustanovka- larning aniqlanmagan shaklini o'z ichiga mujassalmashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zida shaxs uchun anglanmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e'tiqod sifatida gavdalanadi va anglanmagan omillar tariqasida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Узнадзе Д. (Ред) Материалы к психологии установки Труды Тбилисского государственного университета. 1940. Т.17. (н агруз.яз.)
2. Донсеов А.И. Психология коллектива. –М.: МГУ.1984
3. Кешелава, А.В., Буданов, В.Г., Румянцев, В.Ю. и др. (2017). Введение в «Цифровую» экономику - ВНИИ Геосистем, - 28 с.



4. Забелина, О.В., Мальцева, А.В., Мирзабалаева, Ф.И. (2019). Установки работающего населения России на непрерывное профессиональное образование. Креативная экономика. Том 13, №4. - С.773-790. doi: 10.18334/ce. 13.4.40532
5. Melikboboyevich, S. U., & Abdukarimovich, Y. T. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE TREATMENT OF PERSONAL AGGRESSION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 26-30.
6. Yuldashev, T. (2022, February). Measures to eliminate or prevent the manifestation of personality aggression. In *Conference Zone* (pp. 227-229).
7. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.